



**DINIY MUTAASSIBLIK G'OYALARI VA ULARNING XOTIN-QIZLAR
PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

A.I. Yusufjanov

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ekstremistik harakatlar va diniy radikalizmning kuchayishi, xotin-qizlar huquqlariga qarshi qaratilgan cheklovlar va zo'ravonliklar muammoning jiddiyligi, bu holatlar, o'z navbatida, xotin-qizlar ijtimoiy psixologiyasida katta bo'shliqlar chiqarayotganligi yoritib berilgan. Xotin-qizlarning diniy mutaassiblikka tushib qolishining oldini olish va ularni himoya qilish uchun ijtimoiy psixologiyaning rolini oshirish va uning jamiyat hayotidagi o'rni to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *radikalizm, diniy mutaassiblik, cheklovlar, progressiya, gender tenglik, profilaktika, dastur, global, fundamentalism.*

**ИДЕАЛЫ РЕЛИГИОЗНЫХ ОБЪЕКТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА
ПСИХОЛОГИЮ ЖЕНЩИН**

А. И. Юсуфжанов

Магистрант Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация: *В статье подчеркивается серьезность проблемы роста экстремистских движений и религиозного радикализма во многих странах мира, ограничений и насилия в отношении прав женщин, а также тот факт, что эти ситуации, в свою очередь, создают большие пробелы в социальной психологии женщин. Дискуссия была сосредоточена на повышении роли социальной психологии и ее места в обществе для предотвращения и защиты женщин от впадения в религиозный фанатизм.*

Ключевые слова: *радикализм, религиозный фанатизм, ограничения, прогресс, гендерное равенство, профилактика, программа, глобальный, фундаментализм.*



IDEALS OF RELIGIOUS OBJECTS AND THEIR INFLUENCE ON THE PSYCHOLOGY OF WOMEN

A. I. Yusufjanov

Master's student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract: *The article emphasizes the seriousness of the problem of the growth of extremist movements and religious radicalism in many countries of the world, restrictions and violence against women's rights, as well as the fact that these situations, in turn, create large gaps in the social psychology of women. The discussion focused on enhancing the role of social psychology and its place in society to prevent and protect women from falling into religious fanaticism.*

Keywords: *radicalism, religious fanaticism, restrictions, progress, gender equality, prevention, program, global, fundamentalism.*

Kirish.

Yer shari aholisi geometrik progressiya bo'yicha o'sib borar ekan, uning ijtimoiy qatlamini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bashariyatning qariyb yarmini tashkil etuvchi, kelajak avlodning ustuni bo'lmish ayollardir. Zero, bu insoniyat salohiyatining yarmiga teng deganidir. Shu sababdan, ayollar huquqlarni kafolatlash va ularning qadr qimmatini, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi, erkin qarorlar qabul qilishi, bilim olishi, kasb egallashi uchun imkoniyatlar yaratish nafaqat gender tenglikka erishish uchun balki jamiyat ma'naviy axloqiy muhitini barqarorlashtirishda juda muhim ahamiyatga egadir.

Ayollar va qizlar bu orqali o'z oilalari, davlati, mamlakati yuksalishi uchun hissa qo'shib, shu bilan birga oilasiga qo'shimcha daromad keltiradi, vatani rivojlanishi uchun hissa qo'shadi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi. Ziyoli ayolning farzandi tarbiyasi, bilimga chanqoq, yurtini, vatanini sevadigan sog'lom farzand bo'lib ulg'ayadi.

Adabiyotlar tahlili:

Diniy mutaassiblik jamiyatda ijtimoiy notenglik, ruhiy barqarorlikning buzilishi va siyosiy beqarorlik kabi omillar bilan bog'liq. Erik Hofferning *The True Believer* asarida bu jarayonning psixologik jihatlari chuqur yoritilgan[2] bo'lib, mutaassiblik ko'pincha insonning o'zlikni izlash ehtiyoji va xavfsizlikka intilishi natijasi ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa diniy guruhlarining jozibadorligini oshiradi, ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy bosim ostida bo'lganlar uchun.



Karen Armstrongning “The Battle for God” asari esa diniy fundamentalizmning tarixiy ildizlarini o‘rganadi[3]. Uning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, mutaassiblik asosan zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashishga qiynalayotgan shaxslar va guruhlar orasida kuchayadi. Ushbu tahlillar diniy mutaassiblikning nazariy asoslarini tushunishga va uning ta’sirini kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xotin-qizlar diniy mutaassiblikning asosiy nishon guruhlaridan biriga aylanmoqda. Lamis H. Jomaa va boshqalarning Women and Radicalization in Jordan tadqiqotida bu jarayonning ijtimoiy va iqtisodiy omillari chuqur tahlil qilingan[4]. Xotin-qizlarning ta’lim darajasi, iqtisodiy qiyinchiliklari va ijtimoiy cheklovlari ularni radikal guruhlarining maqsadiga aylantiradi. Jessica Sternning “Terror in the Name of God” asarida diniy radikalizmga kirib qolishning shaxsiy va psixologik sabablari yoritilgan[5]. Bu sabablardan biri shundaki, diniy guruhlar ko‘pincha xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini yaxshilash yoki ularning "muqaddas maqsadlar"ga xizmat qilish istagini qo‘llab-quvvatlash orqali ularni o‘z safiga jalb qiladi.

Natijalar va muhokama.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5020-son Qarorida mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash, joylarda “Ayollar daftari”ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o‘rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish[1] kabi masalalarga qaratilgan.

Ayollar turli tarixiy davrlarda o‘zining aql-zakovati, ilmi, siyosiy faolligi bilan mamlakatning ijtimoiy, madaniy hamda ilmiy rivojiga hissa qo‘shib kelgan. Jumladan, mil. avv. VI asrda yashagan jasur sarkarda To‘maris; Sohibqiron Amir Temurning suyukli ayoli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi Saroy Mulkxonim; temuriy malikalar – Gavharshod begim, Mulakat Og‘o begim, Qutlug‘ Nigorxonim, Gulbadan begim, Mumtoz Mahal begim, Zebunniso begim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda ajdodlar merosiga sodiq qolib, ayollar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Jamiyatda ayollar huquqini ta’minlash, ularning ijtimoiy maqomini oshirish, ilm olishlari uchun sharoit yaratish bilan birga bugungi axborotlashgan jamiyatda diniy mutaassiblik g‘oyalari ta’siriga tushib qolgan xotin-





qizlarga psixologik yordam ko'rsatish, ularni barqaror muhitga qaytarish hamda tinch osoyishta hayot kechirishlariga etarlicha sharoitlar yaratishda profilaktika ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega.

Diniy mutaassiblikning xotin-qizlarga ta'sirini va ushbu muammoning oldini olishda ijtimoiy psixologiyani o'rnini o'rganish dolzarb hisoblanib, bu masala global va mahalliy miqyosda jamiyatlarning barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Chunonchi, buni bir nechta omillar orqali tavsiflash mumkin:

Diniy mutaassiblik dunyo miqyosida keng tarqalgan va ko'plab jamiyatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Xalqaro terroristik guruhlar va ekstremistik harakatlar ko'pincha diniy mutaassiblikdan oziqlanib, o'z safiga asosan yoshlarni, jumladan xotin-qizlarni jalb qilmoqda. Bu esa xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi strategiyalar va profilaktika dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Xotin-qizlar diniy mutaassiblikdan ko'proq zarar ko'rishi mumkin, chunki ular ko'pincha ma'naviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan zaifroq bo'lishadi. Diniy mutaassiblik ularning o'z-o'zini anglash, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda faol ishtirok etishlariga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun, xotin-qizlarni himoya qilish va ularga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlash uchun bu mavzuni o'rganish muhim[6].

Ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, diniy mutaassiblik ijtimoiy muammolarni kuchaytirishi mumkin. Bu ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda, qattiq diniy qadriyatlar va urf-odatlar hukmron bo'lgan hududlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holatlarda, xotin-qizlar ko'pincha ma'lumot va imkoniyatlardan mahrum bo'lib, jamiyatdagi tengsizliklarni kuchaytiradi.

Ijtimoiy psixologiya diniy mutaassiblikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Chunki bu soha insonlarning xatti-harakatlarini, guruh dinamikasini va ijtimoiy ta'sirlarni o'rganadi. Psixologik maslahat va qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam tarmoqlari va ta'lim dasturlari orqali diniy mutaassiblikka qarshi kurashda samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu yondashuvlar xotin-qizlarning o'z-o'zini anglash va rivojlanishiga, shuningdek, ularning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishiga yordam beradi.

Diniy mutaassiblikka qarshi samarali profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati oshib bormoqda. Bu dasturlar xotin-qizlarni himoya qilish, ularning huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga yordam beradi. Shu sababli, ijtimoiy psixologiyani profilaktika dasturlaridagi o'rnini o'rganish dolzarb va muhimdir.





Xulosa. Xulosa qilib aytganda, diniy mutaassiblikning xotin-qizlar orasida tarqalishiga olib keluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganish, ushbu muammoning oldini olish uchun samarali profilaktika dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan xatti-harakatlar behuda ketmaydi. Bunda xotin-qizlarning diniy mutaassiblik ta'siridan halos bo'lish jarayonida ijtimoiy psixologik yondashuvlar va metodlar markaziy o'rin tutadi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari diniy mutaassiblikning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish, milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish kabi masalalardan iborat.

Tadqiqotning farazlari ijtimoiy psixologik mexanizmlarning samaradorligini nazarda tutadi. Birinchidan, diniy mutaassiblikning psixologik va ijtimoiy omillari chuqur tahlil qilish xotin-qizlarni bu holatdan halos etish uchun amaliy yondashuvlar ishlab chiqish osonlashadi. Ikkinchidan, ijtimoiy-psixologik metodlarning diniy mutaassiblikka qarshi kurashda samarali vosita sifatida ishlatilishini ifoda etadi. Shu bilan bir qatorda, xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali profilaktika dasturlarining sifatini oshirish va xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5020-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5320582>
2. Hoffer E. The True Believer: Thoughts on the Nature of Mass Movements. – New York: Harper & Brothers, 1951. – 177 p.
3. Armstrong K. The Battle for God: A History of Fundamentalism. – New York: Ballantine Books, 2001. – 442 p.
4. Jomaa L. H., Nassar A. H., Abdulrahim S. Women and Radicalization in Jordan. – Beirut: Issam Fares Institute for Public Policy and International Affairs, 2017. – 83 p.
5. Stern J. Terror in the Name of God: Why Religious Militants Kill. – New York: HarperCollins, 2003. – 368 p.
6. Шоумаров Ғ., Акрамова Ф., Умаров Б. Оилада маънавий-ахлоқий тарбия. Т: 2015. Б.20

